



NAVOIY VILOYATI NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 23-fevral

52-5-73-Q/26

Navbahor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 fevraldagi “2026 yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-49-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida Tumanda barqaror va yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish, loyihaviy yondashuv asosida mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish va hududlarning solishtirma ustunliklarini aniqlagan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 fevraldagi “2026 yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o‘rinlarini yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-49-sonli va viloyat hokimining 2026 yil 17 fevraldagi 31-5-0-Q/26-sonli qarorlari ijro uchunqabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:
Ishsizlik va kambag‘allik darajasini kamaytirish bo‘yicha 2026 yil uchun maqsadli ko‘rsatkichlar;

Aholini doimiy ish o‘rinlariga joylashtirish bo‘yicha 2026 yil uchun maqsadli ko‘rsatkichlar;

Aholini daromadlarni oshirishga qaratilgan xizmatlar bilan qamrab olish bo‘yicha 2026 yil uchun maqsadli ko‘rsatkichlar;

Kambag‘al oilalarni ularning daromadini oshirishga qaratilgan xizmatlar bilan qamrab olish bo‘yicha 2026 yil uchun maqsadli ko‘rsatkichlar;

Asosiy ijtimoiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha tanlab olingan og‘ir toifadagi tumanlar ro‘yxati;

Olmazor tumani tajribasi joriy etiladigan tuman va shaharlar ro'yxati;
Norasmiy ish o'rinlari legallashtirish bo'yicha 2026 yil uchun maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Jumaboyev), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Muhammadov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining 1-4-ilovalari asosida mahallalar kesimidagi oyma-oy maqsadli ko'rsatkichlarni xalq deputatlari tuman Kengashi muhokamasiga o'rnatilgan tartibda kiritilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimi o'rinbosarlari (Jumaboyev, Abdullayev, G'ulomov, Sobirov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Muhammadov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi(Xotamov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda quyidagilarni ta'minlasin:

a) ikki kun muddatda "og'ir" mahallaning manzilli ro'yxati tasdiqlanishini;

b) o'n besh kunlik muddatda "og'ir" mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi dasturlarni (keyingi o'rinlarda - "islohot dasturi" ishlab chiqilishini va tasdiqlash uchun o'rnatilgan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritilishini:

tadbirkorlik uchun qulay infratuzilmani yaratish, jumladan, elektr va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash.

5. Tuman hokimi o'rinbosarlari (Jumaboyev, Abdullayev, G'ulomov, Sobirov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Muhammadov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi(Xotamov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ikki hafta muddatda "og'ir" mahallaning ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi va boshqa infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib solishtirma ustunlik yo'nalishlarini ishga solishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun o'rnatilgan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritsin:

sanoat zonasi faoliyatini kengaytirish, mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, qulay infratuzilma sharoitlarini yaratish;

mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish bilan bog'liq boshqa loyihalar.

6. Tuman (shahar) hokimliklari 2026 yil 1 martdan boshlab xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi tuman va shahar hokimlari tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi tartibi o'rnatilganligi inobatga olinsin.

7. Tumanda 2026 yilda yangicha yondashuvlar asosida aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Jumaboyev,), tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (Muzaffarov) "Islohotlar shtabi" bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida belgilangan vazifalar ijrosini tegishli mas'ullar ishtirokida tanqidiy muhokama qilib, har chorak yakuni bilan viloyat hokimligiga axborot kiritib borsin.

9. Mazkur qarorning samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i S.Muxammadov, tumandagi tijorat banklari hamda Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'ining birinchi o'rinbosari N.Xotamov belgilansin.

10. Ushbu qaror ijrosini muhokama qilib borish, mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari M. Jumaboyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Rashidov

2	<p>Bir nechta mahallani qamrab oluvchi gavjum ko'chalarda, shuningdek, sohil va yo'l bo'yi hududlarida, "Yangi O'zbekiston qiyofasida"gi mahalla hududlarda infratuzilmani rivojlantirish.</p>	<p>1. Bir nechta mahallani qamrab oluvchi gavjum ko'chalarda, shuningdek, sohil va yo'l bo'yi hududlarida, "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla" maqomi berilgan mahallalar va mikro sanoat markazlari tashkil etiladigan mahallalarning infratuzilma bilan bog'liq muammolarni aniqlash. 2. Infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun bosh (master) rejalar va ular asosida loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash. 3. Infratuzilma uchun O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratilgan mablag'larni taqsimlash.</p>	<p>2026-yil fevral</p> <p>2026-yil Aprel</p> <p>2026-yil aprel</p>	<p>Respublika va mahalliy budjet, tijorat banklari kreditlari va tashabbuskorlar mablag'lari</p>	<p>Tuman hokimining o'rinbosarlari (Jumaboyev, Abdullayev, G'ulomov, Sobirov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Muxammadov), Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Xotamov) tijorat banklari tegishli tashkilotlar</p>
3	<p>Barqaror elektr ta'minotini yaxshilash va bu orqali kambag'al oilalarning elektr energiyasi xarajatlarini kamaytirish.</p>	<p>1. "Og'ir" mahallalar hududida kichik quyosh elektr stansiyalarini qurish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. 2. Qurilgan kichik quyosh elektr stansiyalarini "og'ir" mahallalarga daromad</p>	<p>2026-yil fevral</p> <p>2026-yil aprel</p>	<p>Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi</p>	<p>Tuman hokimi o'rinbosari (Sobirov), tuman Elektr tarmoqlari korxonasi (Shamsiyev), tuman Iqtisodiyot va</p>

		<p>keltiradigan aktiv sifatida beg'araz berish.</p> <p>3. Quyosh elektr stansiyalarida yaratiladigan elektr energiyasini sotishdan tushadigan mablag'larni mahalla budjetiga yo'naltirish.</p> <p>4. Quyosh elektr stansiyalarini boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish uchun ushbu mahallalarda yashovchi Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oila a'zolarini o'qitish va ishga olish.</p>	2026-yil davomida		<p>moliya bo'limi (Xotamov), Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuman bo'limi (Allayev), tegishli tashkilotlar</p>
4	<p>Og'ir toifadagi mahallalardagi aholi tomorqasi va ijara yer maydonlaridan samarali foydalanish orqali aholi daromadini oshirish.</p>	<p>Tanlab olingan 2 ta og'ir toifadagi mahallalar bo'yicha davlat va mahalla o'rtasida ijtimoiy shartnomalar tuzish.</p> <p>Bunda "mahalla yettiligi" tomonidan:</p> <p>(a) aholi tomorqasi va ijara yer maydonlaridan samarali foydalanish (ekin ekish) hamda oilaning daromadini oshirish;</p> <p>(b) oilaga tegishli uy-joyning sanitariya holatini yaxshi saqlashva boshqa majburiyatlar.</p>	2026-yil mar	-	<p>Tuman hokimining o'rinbosarlari (Jumaboyev), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Muxammadov O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi</p>
II. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish					

5	Har bir mahallada kichik ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida o'rtacha 40 tadan jami 1520 ta mikroloyihalarni amalga oshirish.	<p>1. 2026 yilda mahallalarda amalga oshiriladigan mikroloyihalarning oyma-oy reja ko'rsatkichlarini tasdiqlash.</p> <p>2. Biznes qilish tashabbusini bildirgan fuqarolar bilan manzilli ishlash orqali mikroloyihalar uchun kreditlar portfelini shakllantirish.</p> <p>3. Mikroloyihalarni amalga oshirish uchun zarur kredit mablag'ini moliyalashtirish.</p>	<p>2026 yil fevral</p> <p>2026 yil mart</p> <p>2026 yil davomida</p>	Tijorat banklari kreditlari va loyiha tashabbuskorlari mablag'lari	Tuman hokimining o'rinbosarlari (Jumaboyev, G'ulomov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Muxammadov), tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi, tegishli tijorat banklari
6	Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish doirasida o'zini o'zi band qilgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash orqali tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish.	<p>1. Har bir mahalladan tadbirkorlik qilish istagi bo'lgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Istiqbolli loyihalarni saralash, o'zini o'zi band qilgan shaxslarga tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish uchun kredit mablag'larini ajratish.</p>	2026 yil davomida	Tijorat banklari kreditlari va tashabbuskorlar mablag'lari	Tuman hokimining o'rinbosari (M. Jumaboyev), tuman Mahallalar uyushmasi, tuman Soliq inspeksiyasi (Sh. Berdiyev), tegishli tijorat banklari
II. Maqsadli ijtimoiy bandlik dasturlari					

	“Mehnatsevar ayol” dasturi doirasida 150 nafar xotin-qizlar bandligini ta’minlash.	1.Xotin-qizlar bandligini ta’minlash bo’yicha Mehnatsevar ayol” dasturini ovul fuqarolar kesimida kesimida ishlab chiqish. Vaucher tizimi asosida o’qish istagini bildirgan xotin-qizlarning o’qish xarajatlarini moliyalash tirish.	2026 yil fevral 2026 yil davomida	Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi	Tuman hokimi o’rinbosari-Oila va xotin-qizlar bo’limi (G.Ergashova), tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlik bo’limi (Muxammadov), tegishli tashkilotlar
8	Ijtimoiy reyestrda 1 guruh nogironligi bo’lib, mehnatga layoqatli a’zosi bo’lmagan oilalarning xonadonini energiya tejamkor qilib ta’mirlash.	Tumanda yashovchi Ijtimoiy reyestrda 1 guruh nogironligi bo’lib, mehnatga layoqatli a’zosi bo’lmagan oilalarni (keyingi o’rinlarda - ehtiyojmand oila) aniqlash va ularning xonadonini energiya tejamkor qilib ta’mirlash ishlarini amalga oshirish.	2026 yil mart	“Saxovat va ko’mak”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” jamg’armalari	Tuman hokimi o’rinbosari (A.To’xliyev), tuman Elektr tarmoqlari korxonasi (Shamsiyev), Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuman bo’limi (Allayev), tegishli tashkilotlar
IV. Dehqon xo’jaligi, tomorqa va kooperatsiya asosida daromad olish					
9	"Bir kontur-bir mahsulot" tamoyili asosida mahsulot yetishtirishni 90 gektarga yetkazish.	1. Ekin maydonlari ro’yxatini shakllantirib, ushbu maydonlarga talab etiladigan urug’ va ko’chatlarga bo’lgan ehtiyojni aniqlash.	2026-yil fevral	Tijorat banklari kreditlari tashabbuskorlar mablag’lari	Tuman hokimining o’rinbosarlari (Jumaboyev, G’ulomov), tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlik bo’limi

					(Muxammadov)
		<p>2.Ehtiyojdan kelib chiqib, moliyaviy koʻmaklarni taqdim etgan holda ekin ekilishini taʼminlash.</p> <p>3.Tijorat banklari tomonidan oʻzlariga biriktirilgan har bir hududda 40 gektar yer maydonida yuqori daromadli eksportbop mahsulot yetishtirilishini taʼminlash.</p>	<p>2026-yil aprel</p> <p>2026-yil davomida</p>		Tegishli tijorat banklari
10	Mahallalarda loyihaviy yondashuv asosida 8 ta mahallada "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyiliga muvofiq yuqori daromadli mahsulot yetishtirish.	<p>Loyihaviy yondashuv asosida "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyiliga muvofiq yuqori daromadli mahsulot yetishtiruvchi mahallalar sonini 8 taga yetkazish.</p> <p>Bunda: 8 ta mahallada qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirishda aholi koʻnikmalarini oshirish uchun usta dehqonlarni yollash</p> <p>Aholi tomorqalaridan yuqori daromad olishida yordam berish.</p>	2026-yil noyabr	Tijorat banklari kreditlari, Dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qoʻllabquvvatlash jamgʻarmasi, tashabbuskorlar mablagʻlari	Tuman hokimining oʻrinbosarlari (Jumaboyev, Abdullayev, Gʻulomov, Sobirov), tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi (Muxammadov), tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi, Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi tuman boʻlimi, tijorat

					banklari
11	Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar sotilishini rag'batlantirish.	<p>1. Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish uchun dehqon bozorlari va super marketlarda maxsus va savdo nuqtalari ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Shakllantirilgan ro'yxatga kiritilgan maxsus va savdo nuqtalarida savdo qilish uchun zarur sharoitlar yaratish.</p> <p>3. Tashkil etilgan maxsus va savdo nuqtalarini, birinchi navbatda, Ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalar a'zolariga berish</p>	2026-yil aprel	Mahalliy budjet mablag'lari	Tuman hokimi o'rinbosari (A.To'xliyev), Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuman bo'limi (Allayev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Xotamov)

V. Ish beruvchilar bilan ishlashni takomillashtirish					
12	<p>“Bandlik organlari - ish beruvchi hamkori” dasturini takomillashtirish hamda ish beruvchilar va ish izlovchilar o‘rtasida Hamkorlikni o‘rnatish hisobiga 2944 nafar aholini doimiy ish o‘rinlariga joylashtirish.</p>	<p>1. Bandlik organlari tomonidan korxonalarda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ish qidiruvchilarning rezyumelari "osonish.uz" elektron platformasiga joylashtirilishiga ko‘maklashish. Ish beruvchilarga sun‘iy intellekt yordamida nomzodlarni aniqlash va tavsiya etish mexanizmini joriy etish.</p>	2026 yil davomida	Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Jumaboyev, G‘ulomov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Muxammadov Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuman bo‘limi (Allayev), tuman Mahallalar uyushmasi, tegishli tashkilotlar
VI. Institutsional islohotlar va loyiha boshqaruvi.					
3	<p>Norasmiy ish o‘rinlarini rasmiy sektorga o‘tkazish ishlarini takomillashtirish.</p>	<p>1. Norasmiy ish o‘rinlarini rasmiy sektorga o‘tkazish bo‘yicha tegishli dasturlarni tasdiqlash. Bunda, ko‘rsatkichlardan kelib chiqib oyma-oy reja ko‘rsatkichlari hamda amalga oshiriladigan nazorat va profilaktik tadbirlari nazarda tutiladi. 2. Tasdiqlangan dastur asosida Hududlarda aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ishlarni tashkil etish. O‘tkaziladigan tekshiruvlarning shaffofligini oshirish uchun Davlat mehnat inspektorlarini bodi-kameralar bilan ta‘minlash choralarini ko‘rish;</p>	2026-yil davomida	Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Jumaboyev, Abdullayev, G‘ulomov, Sobirov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Muxammadov), Tuman Soliq inspeksiyasi (Berdiyev), Ijtimoiy himoya milliy agentligi

					tuman bo'limi (Allayev), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Muxammadov), tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi, tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi
--	--	--	--	--	---